

Faol texnologiyalarni o'smirlar psixologiyasiga ta'siri

Qo'qon universiteti Iqtisodiyot va ta'lim fakulteti

Raqamli texnologiyalar Kafedrasida assistent

Yuldashev Axrorjon

Qo'qon universiteti talabalari

Muxtorov Alijon

Mo'ydinov Hayitali

Aliyeva Iqlima

Tel: +998932215979

Elektron pochta manzili: alimuxtorov03@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolamizda biz o'smir yoshidagi bolalarni psixikasi rivojlanish vaqtida ulardagi AKT ta'siri haqida batafsil yozib o'tishga harakat qildim.

Va bu yoshdagi bolalar psixikasi rivojlanishida AKT dan qanday foydalanish haqida faktlar va maslahatlar berib o'tganman. Va ulardagi hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqqa qaramlik yoki faollik darajalarini anketa so'rovi metodida foydalangan holda ko'rsatib berishga harakat qildim.

Kalit so'zlar Komunikatsiya Texnologiya, Kiber o'yin, alkagolli mahsulot, onlayn-platforma, Yang Bingben, virtual haqiqat.

O'smir yoshidagi bolalarning aqliy salohiyatini rivojlanishida Axborot Komunikatsiya Texnologiyalarining ta'siri har xil bo'lishi mumkin bu balkim ijobiy balkim salbiy bo'lishi mumkin bu esa siz tanlagan dasturingizga bog'liq agarda u dastur offline muhitda ishlab sizning maroqli dam olishingiz uchun xizmat qilsa va unda tadbiriq etish kontenti yosh nisbatlarida olingan bo'lsa u dastur sizga juda ham huzurli hordiq nomoyon qiladi. Agarda u ilova jangari va +18 kontentda bo'lsa u voyaga yetmagan o'smirlarni ongiga juda ham kuchli ta'sir qiladi ularda erta balog'atga yetish. Psixik yoshini oldinlab ketishi va uni organizimidagi garmonlarning faollashuvi. Bolani yaxshi tarafga boshlamaydi va uni yomon tarafga boshqarishi mumkin. Dono xalqimizda bir gap bor "har bir narsa o'z o'rnida bo'lgani maqul" deya bejiz aytishmagan. Chunki o'z yoshidan erta balog'atga yetgan bola tengdoshlariga ham bu hislat yuqtirqadi ularni har xil yomon faxsh ishlariga boshlaydi va ishtiyog'ini uyg'otadi. Har turdagi zararli vositalar sigaret va shunga o'xshash alkagolli mahsulotlar istomilga chaqirib ular bu xarrom narsalarga qaram bo'lib qolishida asosiy ishtirokchi bo'lishi mumkin.

Kiber o'yinlar onlayn muhitdagi barchasi bu kontenti qanaqa bo'lsa ham ular o'z obunachilarini ko'paytirish uchun turli material manbalar tashlashi mumkin shu orqali bolalar o'smirlar ongini zaxarlaydi bunga misol qilib yaqin 5 yilda paydo bo'lgan Sini Kit yani ko'k kit o'ynini misol qilishimiz mumkin u o'yin shunday o'yinki ehtiyoji og'ir bolalarga turli hildagi topshiriqlar berib ularga katta miqdorda pul taklif qilishi va u pul uchun o'zini har ko'yg'a solishi qo'shnisini uyiga o'g'irlikka tushishi, ota-onasini haqorat qilishi, tanasiga tatirofkalar chizishi, turli o'tkir jismlar bilan ziyon yetkazishi jarohat



turiga qarab sizga turli miqdorda mablag' to'lashi mumkin. Kun kelib siz bundan voz kechsangiz sizni oilangiz haqidagi malumotlarni ham olib sizga tahdid qilishi aniq va siz bu o'yindan hech ham keta olmaysiz. Shu kunga kelgunicha sizni oilangiz haqidagi malumotlarni ham sotib oladi sizdan shuning uchun siz hushyor yurishingiz zarur.

Shunqa qilib o'z to'riga ilintirgan bolani keyin o'ziga qurol qilib turli namoyish yoki shunga o'xshash havfli ishlar uchun yo'llab ularni jamiyatdagi qotillarga aylantirishar edi. Shuning uchun agar siz telefonni farzandingiz yoki o'g'lingiz qo'lga bersangiz albatta bitta kuzatuvchi qarindoshingizga aytib qo'ying va uni nazorat qilib yurishsin qachonki farzand xatô yo'lni tanlaganda siz uni bu yo'ldan qaytara bilsangiz sizning omadingiz agarda siz bunga befarq bo'lsangiz siz juda ham mushkul ahvolga tushsib qolishingiz aniq.

O'spirin yoshidagi bolalar asosan ish vaqtlari va turli marosim vaqtlarida onlayn o'yinlar o'ynashiga ruhsat berilmaydi. 18 yoshga kirgunicha o'smirlarga 1.5 soatdan ko'p ko'p o'yin o'ynash qat'iy man etiladi.

Va har kecha 22.00 dan 8.00 gacha turli video o'yinlar bilan shug'illanishga taqiq qo'yiladi. Va bu yoshdagi bolalar ichida virtual o'yinlarning turli aksesuarlarini internet do'konlardan harid qilish mumkin emas va bu faktag ko'ra kichik maktab Yoshi va maktab o'quvchilariga oy mobaynida internet do'konlaridan 29\$ dan ko'p pul ishlatilishiga taqiq qo'yiladi.

Bu chora-tadbirlar barcha Xitoylik bolalar faol bo'luvchi internet klublariga joriy etilgan.


Psixik rivojlanishda muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikklamchidir chunki bu qonuniyatlarning o'ziga hosligi hayot sharoitiga faoliyat va tarbiyaga bog'liq.³³

Mazkur maqolda men asosan anketa so'rov metodikasidan foydalandim va 17 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan yigitlarda ongini rivojlanishida virtual hayotning ta'siri ularda tajribalar qilib ko'rdim. Bunda 100 nafar turli viloyatlardan ko'ngillilar ishtirok etdilar³⁴

Ular orasida telegram, Tik tok, Instagram, You tube kabi ijtimoiy tarmoqlardagi aktivlik haqida anketa so'rovnomasini uyushtirdik va bu so'rovnoma natijasini quyidagi jadvalda aniqlashingiz munkin.

³³ Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Do'stmuhammedova SH, Nishonova Z, Jalilova S, Karimova Sh, Alimbayeva Sh, "45-bet Psixik rivojlanish va ta'lim"

³⁴ So'rovnoma Qo'qon universiteti talabalaridan o'tkazildi



Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turibdiki, Telegram ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanish ko'rsatgichlari (50%) qolganlariga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko'rsatmoqdan bundan bilinadiki, barcha talabalarining asosiy vaqtlari telegram tarmoqlarida faollik bilan o'tadi ekan ularda men suhbat qilganimda asosiy qismi telegram orqali shaxsiy biznes faoliyatini yuritir ekan va shuning uchun ko'proq telegram ijtimoiy messenjerida faollik qiladi va ulardan yana asosiy qismi chet elda hizmatda bo'lgan yaqin insonlari bilan muloqotda bo'lishi haqida ma'lumotlar to'pladim.

Keyigi grafik esa bizga yoshlarning o'smirlarning Tik tok ko'ngil ochar messenjeridan qanchalik foydalanishi haqida ma'lumotlar yig'ildi (20%) bu esa ularning qancha foizi tik tokdan foydalanishi haqida bilib oldik ular uchida Tik tok tarmog'ida yulduz bo'lib shakillanganlari yo'q ekan ular asosan bo'sh vaqtlaridan charchagan vaqtlarida ko'ngil yozish maqsadida Tik Tokdan foydalanishar ekan. Va bu tarmoqda turli kulgili videolar orqali kayfiyatlarini yanada ko'tarib yana sevimli mashg'uotlari bilan shug'ullanib ketishar ekan.

Keyngi status bu Instagram ijtimoiy tarmog'I bo'lib bu tarmog' orqali yoshlar turli suratlarini turli esda qolarli lahzalarini barcha yaqinlariga ulashish maqsadida foydalanishlari malum bo'ldi va ularni kamroq foizi (15%) bu tarmoqda doimiy faollik qilar ekan

Va albatta bizda so'nggi tarmoq bu You tube ijtimoiy tarmog'I bo'lib (25%) bu tarmoqdagi asosiy talabalar kechki yoki dam olish kunlarida kin ova seriallar ko'rishi haqida malum qilishda ular you tubega juda ham ko'p vaqt sarflashmas ekan chunki hozirgi vaqtga kelib you tube ijtimoiy tarmog'i juda ham sekinlashib ketdi va videolar sifati tushib ularning avtorlik huquqi buzilib ketdi. Vu shu sababli barcha habarlari ham rost bolib chiqa vermasligi haqida bildirishib o'tishdi.



Yuqoridagi “Ijtimoiy tarmoqlarda faollik darajasi “ haqidagi faollik bu universitetni boshqa viloyatlardan kelib shu yerda tahsil olib Student hostelida vaqtinchalik yashayotgan 100 nafar ko’ngilli respondentlardan olindi va ular bilan suhbatlashildi bu yerda suhbat anketa metodida samarali foydalanishga harakat qildim va buni natijalarini sizlarga ham ulashishni qaror qildim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki farzandingizni kelajagiga va uni ertanggi kuniga asosiy ta’sirni internet ko’rsatadi unga qay tarafga rivojlanishni aytadi. To’g’ri oila ham birinchi o’rinda ammo oila qanchalik tarbiya bergani bilan bolaga o’z ixtiyorini topshirib qo’yish, bolani qo’liga arra berib o’zi o’tirgan shoxini kesishlik bilan baro-bardir. Shuning uchun azizlar bu borada juda ham ehtiyot bo’laylik va farzandimiz bugun nima qilayabdi kimlar bilan yuribdi bohabar bo’laylik. Chunki zero, farzandimiz o’zimizning kelajagimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalar ro’yhati

1. www.kun.uz rasmiy yangiliklar
2. <https://uz.tierient.com/internetga-qaramlik-zamonaviy-jamiyat-muammos>
3. <https://eurodomik.ru/uz/raschet/internet-zavisimost-u-detei-kak-rozhdaetsya-internet-zavisimost-internet-zavisimost-prichiny>
4. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Do'stmuhammedova SH, Nishonova Z , Jalilova S, Karimova Sh, Alimbayeva Sh, “45-bet Psixik rivojlanish va ta’lim”